

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODLARINING SAMARADORLIGI

Xolyigitova Muhlisa Anvar qizi
TOSHD O‘TAU, O‘TA 4-kurs talabasi
muxlisaxolyigitova@gmail.com
Tel: +998999701463

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishning samarali metodlari tahlil qilingan. Rol o‘ynash, munozara, “aqliy hujum”, kichik guruhlarda ishlash, ijodiy topshiriqlar va audiovizual vositalardan foydalanish kabi metodlarning o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda erkin fikrlash, so‘z boyligini kengaytirish, mantiqiy nutq tuzish, tinglab tushunish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda interaktiv yondashuvlarning afzalliklari ko‘rsatib berilgan. Maqolada metodlarning samaradorligi o‘qituvchi faoliyatiga, dars jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishiga va o‘quvchi faolligini ta‘minlashga bog‘liqligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ona tili ta‘limi, og‘zaki nutq, nutqni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, muloqotga asoslangan ta‘lim, rol o‘ynash metodi, munozara, aqliy hujum, guruhli ish, monologik va dialogik nutq, nutq madaniyati, o‘quvchi faolligi, pedagogik yondashuv.

Abstract. This article analyzes effective methods for developing students' oral speech in native language lessons. The role of such methods as role-playing, discussion, "brainstorming", work in small groups, creative tasks and the use of audiovisual tools in the formation of students' communicative competence is highlighted. The advantages of interactive approaches in developing students' skills such as free thinking, expanding vocabulary, constructing logical speech, and listening comprehension are also shown. The article substantiates that the effectiveness of methods depends on the teacher's activity, the correct organization of the lesson process, and ensuring student activity.

Keywords: mother tongue education, oral speech, speech development, communicative competence, interactive methods, communication-based education, role-playing method, discussion, brainstorming, group work, monological and dialogical speech, speech culture, student activity, pedagogical approach

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023 -yilni “Insonga e’tibor

va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishidan Respublikamizda ta'lim tizimiga davlat miqyosida katta e'tibor qaratilayotganini bilishimiz mumkin. Muhtaram Prezidentimizning ta'kidlashicha, "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir". Shu o'rinda bobomiz Yusuf Xos Hojibning: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi", — degan qarashlarini eslab o'tish joiz [Tursunaliyeva 2023, 514-516].

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki shaxsning jamiyatda faol ishtirok etishi, o'z fikrini aniq, ravon va mantiqan asoslab bayon eta olishi uning og'zaki nutqiga bevosita bog'liqdir. Ona tili fani esa ushbu kompetensiyani shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi. An'anaviy dars metodlari o'quvchilarning faqat tinglovchi roliga qolishiga olib kelgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchini faol suhbatdosh, mustaqil fikr egasi sifatida shakllantirishni maqsad qiladi. Ona tili darslarida og'zaki nutq uchun alohida mashg'ulotlar ishlab chiqilishi zarur. Bunda birinchi navbatda bolaning o'z fikrini lisoniy vositalar yordamida to'g'ri ifodalash, mavjud lug'at boyligidan oqilona foydalanish, bir mavzudan chetga chiqmay gapirishi, nutqni to'g'ri strukturalashtirish, ya'ni mavzuga kirish, asosiy fikrni aytish, xulosalash, aytadigan gapi eshituvchiga qanday ta'sir qilishini oldindan baholay olish, tinglovchining diqqatini ushlab turish kabi ko'nikmalar shakllantirilib, takomillashtirilib borishi zarur. [I. Azimova. 2020.55-b]

O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish jarayoni murakkab psixolingvistik tizim bo'lib, bunda so'z boyligi, mantiqiy fikrlash, muloqot madaniyati, eshituv orqali idrok etish va vaziyatga mos nutq tuzish kabi ko'nikmalar birgalikda shakllanadi. Shu bois zamonaviy ona tili darslarida interaktiv metodlardan oqilona foydalanish, o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, unga erkin fikr bildirish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ta'limda qo'llanilayotgan rol o'ynash, munozara, aqliy hujum, guruhda ishlash kabi metodlar o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshirayotganini amaliy tajribalar tasdiqlamoqda. Bu metodlar nafaqat og'zaki nutq, balki o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va nutq madaniyatini ham rivojlantiradi. Demak, ona tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirish metodlarining samaradorligini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism: Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri bo'lib, u nafaqat til bilimlarini, balki o'quvchining tafakkuri va muloqot madaniyatini ham shakllantiradi. Og'zaki nutq rivojining samaradorligi o'quv jarayoniga kiritiladigan metodlar tanlovi, ularni real dars vaziyatiga moslashtirish va o'qituvchining metodik mahoratiga bevosita bog'liq. Traditsion

yondashuvlar ko'pincha o'qituvchining asosiy rolini kuchaytirs, zamonaviy pedagogik tamoyillar o'quvchini faoliyat markaziga qo'yishni taqozo etadi; shu nuqtai nazardan interaktiv va kommunikativ usullar og'zaki nutqni rivojlantirishda ustun ahamiyat kasb etadi.

Og'zaki nutqni baholash tizimi ham uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omildir. Baholashda ravonlik, izchillik, lug'aviy boylik, grammatik to'g'rilik, talaffuz va mavzuga moslik kabi mezonlar asos qilib olinishi lozim. Shu mezonlar bo'yicha berilgan konstruktiv fikr o'quvchiga uning kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish imkonini beradi. Baholash jarayonida ijobiy rag'bat va xatolarni tuzatishda yordam beruvchi ko'rsatmalar qo'llanilsa, o'quvchi o'z nutqiga nisbatan ishonch hosil qiladi va faol ishtirokni davom ettiradi.

O'qituvchining darsni rejalashtirishdagi mahorati, usullarni kombinatsiyalash qobiliyati va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish og'zaki nutqni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Metodlarning samaradorligi ularni sinfnig yoshiga, til darajasiga, psixologik muhitga va o'quvchilarning motivatsiyasiga moslashtirish orqali oshiriladi. Shu bois darsda interaktiv faoliyatlarni bosqichma-bosqich joriy etish, nazariy bilimni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish va o'quvchilarga doimiy konstruktiv fikr berish maqbul hisoblanadi. Qisqasi, ona tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirish – bu bir qator uyg'unlashgan metodlar, real vaziyatlarga moslashtirilgan topshiriqlar va o'qituvchining pedagogik ijodkorligi orqali erishiladigan davomiy jarayon bo'lib, uning samarasi o'quvchining shaxs sifatida jamiyatga faol qo'shilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda turli o'quv topshiriqlari, hayotiy vaziyatlar modellashtirilishi, kichik suhbatlar uyushtirilishi, rolli o'yinlar, munozaralar va argumentatsion mashqlar katta ahamiyatga ega. O'quvchi oddiy matnni qayta hikoya qilish bilan cheklanmay, balki uni tahlil qilish, undagi voqealarni hayot bilan bog'lash, o'z nuqtai nazarini ilgari surish orqali mustaqil fikr yuritishni o'rganadi. Misol uchun, biror hikoya matni o'qitilganda o'quvchilarga qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, ularning o'rniga o'zini qo'yib ko'rish, voqeani boshqacha yakunlash yoki matndagi asosiy g'oyani bugungi hayot bilan solishtirish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu jarayon o'quvchining og'zaki nutqini boyitibgina qolmay, uning tasavvuri va tahliliy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Nutq rivojida darsning psixologik muhitining ahamiyati beqiyosdir. O'quvchi tanqid qilinishidan, masxara qilinishidan qo'rqsa yoki uning fikri kutilmagan tarzda rad etilsa, u og'zaki nutqda erkin bo'la olmaydi. O'qituvchi har bir fikrni qadrlab, noto'g'ri joylarini muloyimlik bilan to'g'rilab, har bir o'quvchiga alohida yondashgan holda darsni olib borganida, o'quvchilar o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rganadi. Dars jarayonida o'quvchi

xato qilishi tabiiy hol sifatida qabul qilinishi kerak. Ana shu qulay muhit og'zaki nutqni rivojlantirishdagi eng asosiy omil hisoblanadi.

Rol o'ynash metodini darsga joriy qilish o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish imkonini yaratadi. Masalan, dars davomida "kutubxonada kitob tanlash", "do'konda xarid" yoki "kasb tanlash bo'yicha maslahat" kabi real vaziyatlar yaratiladi, o'quvchilar esa belgilangan rollarni ijro etish orqali mavzuni ichki his-tuyg'ulari va talaffuz jihatidan sinab ko'radi. Rol o'ynash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini vaziyatga mos ravishda qisqacha yoki kengroq bayon etishni o'rganadilar, bir-birining nutq uslubini kuzatish orqali tilning emotsional va pragmatik jihatlarini anglaydilar. Bu metod ayniqsa uyatchan o'quvchilarni ham muloqot maydoniga jalb etadi, chunki rol — shaxsiy emas, balki topshiriq asosida bajariladi.

Munozara metodining qo'llanilishi o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini kuchaytiradi va fikrni asoslash madaniyatini shakllantiradi. Darsda muayyan mavzu atrofida o'tkaziladigan munozaralarda o'quvchilar mavzuni tahlil qilib, asosli argumentlar keltirishga majbur bo'ladilar. Bulardan misol tariqasida "telefon o'quvchiga yordam beradimi yoki zarar keltiradimi" kabi muammolarni ko'rib chiqish mumkin; har bir o'quvchi yoki guruh o'z nuqtai nazarini dalillar bilan himoya qiladi, qarshi fikrlarni tinglash va ularga mantiqan qarshi turish ko'nikmasini rivojlantiradi. Munozara jarayoni shuningdek tinglash madaniyatini, fikrlarni qisqacha va lo'nda ifodalashni talab etadi, bu esa og'zaki nutqning samaradorligini oshiradi.

Aqliy hujum va erkin fikr almashinuvi metodlari o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish va fikr tezligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi tomonidan berilgan ochiq savolga o'quvchilar tartibsiz, lekin tez fikrlar bilan javob beradilar; masalan, "yaxshi inson kim?" yoki "til bilishning foydasi nimada?" kabi savollarga javoblar yig'ilib, keyin umumlashtiriladi va tahlil qilinadi. Bu uslub o'quvchilarni o'ylab qolmasdan, avvalo fikrni so'zga aylantirishga undaydi va shu orqali nutq tezligi bilan birga so'z topish ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

Guruhda ishlash o'quvchilarga hamkorlikda fikr yuritish va javobgarlikni bo'lishishni o'rgatadi. Kichik guruhlariga ajratilgan o'quvchilar matnni og'zaki qayta hikoya qilish, voqeani yangi yakun bilan davom ettirish yoki qahramonlarning ichki motivatsiyalarini tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradilar. Guruh ichida rollarni taqsimlash, masalan, taqdimotchi, tahlilchi va yozuvchi rollari, o'quvchilarga turli janrlarda nutq mazmunini tayyorlash va uni tinglovchilarga lo'nda yetkazish tajribasini beradi. Guruh ishlari natijasi bilan bog'liq javobgarlik hissi o'quvchini faol ishtirok etishga undaydi va shu tariqa og'zaki nutqda ishtirok etilishini oshiradi.

Audiovizual texnologiyalardan foydalanish bugungi darslarda og'zaki nutqni rivojlantirishga yangi imkoniyatlar olib kiradi. Qisqa videoroliklar, audio hikoyalar yoki lavhalardan foydalanish o'quvchilarga eshituv orqali idrok etish ko'nikmasini beradi, talaffuzni takomillashtirish va matn mazmunini izchil bayon etishni o'rgatadi. Masalan, o'qituvchi multfilm yoki qisqa hujjatli lavhani ko'rsatgach, o'quvchilar ushbu lavhadagi voqeani qayta hikoya qiladi, personajlar haqidagi fikrlarni bildirishadi va voqeani boshqa burchakdan davom ettirishadi. Bu jarayon o'quvchini vizual va auditiv materiallar asosida tezkor va mazmunli nutq yaratishga o'rgatadi. Ijodiy topshiriqlar og'zaki nutqni yanada chuqurroq va shaxsiyroq shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarga "agar men shoir bo'lganimda..." yoki "agar men qahramon o'rnida bo'lganimda..." kabi shartli vaziyatlar berib, ularni o'z ichki dunyosi va tasavvurlaridan foydalanib nutq yaratishga chorlanadi. Shu bilan birga, talabalarga fikrlarini uchta dalil bilan asoslash vazifasi berilsa, ular o'z nutqini mantiqan tuzishni o'rganadilar. Bunday topshiriqlar monologik nutqni strukturalashga xizmat qiladi va fikrlarni lo'nda, izchil tarzda ifodalashni o'rgatadi.

Shuningdek, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish ham og'zaki nutqning rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. So'zlarni o'zlashtirish jarayoni shunchaki yod olish emas, balki kontekstda qo'llash, holatlar bilan bog'lash va o'rganilgan so'zlarni o'z nutqiga tabiiy kiritishdan iborat. Dars jarayonida o'qituvchi yangi so'zlarning mazmunini tushuntirish bilan cheklanmay, balki o'quvchilar shu so'zlardan foydalanib gap tuzishlari, biror voqeani hikoya qilishlari yoki juftliklarda kichik suhbat qurishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bunday faol mashqlar o'quvchining mustaqil fikr bildirish doirasini kengaytiradi va unda nutqning mantiqiy izchilligi shakllanadi.

Ona tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirishning yana bir muhim jihati — matn asosida ishlashdir. Matn o'quvchini o'ylantiradigan, savol tug'diradigan, fikrga chorlaydigan bo'lishi kerak. Matn asosida savollar tuzish, asosiy g'oyani topish, yashirin ma'nolarni izlash, qahramonlar xarakterini tadqiq qilish kabi ishlanmalar og'zaki nutqning shakllanishiga katta yordam beradi. Ayniqsa, matn asosida tuzilgan debatlar, bahslar yoki "o'quvchi fikri" usullarida o'quvchilarning nutqi sezilarli darajada rivojlanadi. Dars davomida o'quvchi o'z fikrini nafaqat bayon qiladi, balki uni asoslashni, keragida himoya qilishni ham o'rganadi.

Og'zaki nutqni rivojlantirishda muloqotga asoslangan interaktiv usullar – "Aqliy hujum", "Insert", "Tushunchalar tahlili", "Klaster", "Juftlikda ishlash", "Guruh ichida suhbat" kabi metodlar ham juda samarali. Bu metodlar o'quvchini faollik markaziga chiqaradi va o'zaro fikr almashinuvi asosida nutq faoliyatini kuchaytiradi. Ayniqsa, o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaganda, ular bir-birining fikrini eshitadi, baholaydi, taklif bildiradi va shu jarayonda o'z nutqini takomillashtiradi.

Ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlarning samaradorligi o'qituvchining o'quvchi qiziqishi va yosh xususiyatlariga moslashtira olishi bilan belgilanadi. Bir xil metod turli sinflarda turlicha natija berishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi metod tanlashda sinfning ruhiy holati, o'quvchilarning hozirgi darajasi, mavzuning mazmuni va darsning maqsadini hisobga olishi zarur. Har bir dars o'quvchini nutqga undaydigan, unga yangi tajriba beradigan va o'z fikrini kengroq ifodalashga imkon yaratadigan tarzda qurilganda, og'zaki nutqning rivoji izchil va samarali bo'ladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish jarayonida audio va vizual materiallardan foydalanish ham katta samara beradi. Eshitilgan yoki ko'rilgan material asosida fikr bildirish, matnni qayta hikoya qilish, undagi shaxslar orasidagi munosabatlarni sharhlash, voqealarning kechinmalarini talqin qilish o'quvchi ongida jonli tasavvur hosil qiladi. Masalan, qisqa audiohikoya tinglatilgandan so'ng o'quvchilar matndagi asosiy fikrni topish, qahramonlarning his-tuyg'ularini izohlash yoki voqeani davom ettirishlari mumkin. Vizual materiallar – slaydlar, rasmlar, videolavhalar – ham og'zaki nutqni qo'zg'atuvchi kuchli omillardan biri bo'lib, o'quvchining kuzatuvchanligi, tafakkuri va tasviriy fikrlashini rivojlantiradi. O'qituvchi rasm asosida hikoya tuzish, voqeani sahnalashtirish, rasm orasidagi bog'lanishlarni topish kabi topshiriqlarni qo'llash orqali nutqning mantiqiy tuzilishini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning mustaqil fikr bildirishi uchun "erkin mavzu"dagi suhbatlar ham juda foydali. Bunday suhbatlarda o'quvchi o'z hayoti, kundalik tajribasi, qiziqishlari yoki kuzatuvlari haqida gapiradi. O'qituvchining bu jarayondagi vazifasi – o'quvchining fikrini to'xtatib qo'ymaslik, uni rag'batlantirish, nutqidagi xatolarni muloyimlik bilan to'g'rilash va eng muhimi, o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdir. Shaxsiy tajriba asosidagi nutq o'quvchi uchun eng tabiiy va eng sodda shakl bo'lib, aynan shu jarayon orqali u o'z nutqini erkin, ishonchli va mazmunli qilishni o'rganadi.

Shuningdek, og'zaki nutqni rivojlantirishda savol-javobning o'rni beqiyosdir. Ammo savollar faqat faktlarni qayta aytirishga emas, balki fikrlashga, mantiqiy tahlilga va asoslashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. "Nima uchun?", "Qanday?", "Qaysi sabablar tufayli?", "Agar shunday bo'lmaganda-chi?" kabi savollar o'quvchini chuqur fikrlashga undaydi. Savol-javob orqali o'quvchi izchil, mantiqli, bir-biriga bog'liq gaplar tuzishni, fikrni boshlab, davom ettirib, yakunlashni o'rganadi. Bu esa og'zaki nutqning eng asosiy ko'nikmalaridan biridir.

Ona tili darslarida muloqotga asoslangan topshiriqlar ham alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar juftliklarda ishlaganda ular bir-birining fikrini tinglaydi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, kerak bo'lsa, boshqasining fikrini to'ldiradi yoki tuzatadi. Bunday o'zaro

hamkorlik nutqiy faollikni kuchaytiradi, tortinchoq o‘quvchilarning ham darsda faol qatnashishiga yordam beradi. Shu bilan birga, jamoada ishlash madaniyati shakllanadi, fikrlar rang-barangligi yuzaga chiqadi va o‘quvchilar o‘z nutqini turli muloqot vaziyatlariga moslashtirishni o‘rganadi.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlarini inobatga olish ham muhimdir. Kichik sinf o‘quvchilari ko‘proq o‘yin, tasvir, rasm asosidagi faoliyatlar orqali nutq so‘zlaydi. O‘rta sinflarda esa matn bilan ishlash, kichik suhbatlar, bayon qilish, hikoya qilish, rolli o‘yinlar samaraliroq bo‘ladi. Yuqori sinflarda esa murakkab matnlarni tahlil qilish, bahslar, ilmiy fikr yuritish, ijtimoiy mavzularni muhokama qilish kabi jarayonlar o‘quvchilarning nutq madaniyatini yuqori bosqichga ko‘taradi. Shunday qilib, metodlar yoshga mos tanlanganda natija ancha samarali bo‘ladi.

O‘qituvchining nutqi ham o‘quvchi nutqiga bevosita ta’sir qiladigan omillardandir. O‘qituvchi o‘z nutqida aniqlik, mantiqiy izchillik, ravonlik va adabiy me’yorlarga amal qilsa, o‘quvchilar uchun o‘rnak bo‘ladi. O‘quvchi ko‘p hollarda o‘qituvchining nutqiga taqlid qiladi, uning so‘z tanlash usulidan, fikr bayon qilish tarzidan o‘rnak oladi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir darsda o‘z nutqini nazorat qilishi, ortiqcha so‘zlardan qochishi, mazmunli va aniq fikr bildirishga harakat qilishi kerak. Shu tariqa o‘quvchilarda tilga hurmat, adabiy norma, nutq madaniyatiga rioya qilish kabi fazilatlar shakllanadi.

Umuman olganda, og‘zaki nutqni rivojlantirish o‘quvchining shaxs sifatida kamol topishida, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida va kelajakda muvaffaqiyatli muloqot olib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon faqat dars bilan cheklanib qolmay, o‘quvchining hayotiy tajribasi, oilaviy muloqoti, do‘stlari bilan suhbatlari va mustaqil o‘qigan kitoblari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli o‘qituvchi darsdan tashqari faoliyatni ham qo‘llab-quvvatlashi, o‘quvchilarni o‘qishga, fikr almashishga, o‘zini ifoda etishga rag‘batlantirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, o‘quvchini faol o‘quv jarayoniga jalb etish, ularning fikrini qadrlash va ularda mustaqil fikrlashni shakllantirish orqali amalga oshadi. Matn bilan ishlash, muloqotga asoslangan metodlar, interaktiv topshiriqlar, savol-javob, guruhli faoliyat, audio-vizual materiallar — bularning barchasi og‘zaki nutqni rivojlantirishda asosiy vositadir. Metodlar bir-biri bilan uyg‘un qo‘llanganda o‘quvchilarda nutq madaniyati, ravon fikrlash, mantiqiy izchillik, so‘z boyligi va erkin muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Demak, og‘zaki nutqni rivojlantirish — nafaqat til ta’limining asosiy vazifasi, balki o‘quvchini mustaqil, faol, fikrlovchi shaxs sifatida voyaga yetkazishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova, M. (2014). O‘zbek tilshunosligi masalalari, ilmiy nazariy anjuman materiallari. – T. 222.
2. G‘ofurov, U. (2018). Interfaol ta’lim metodlari va ularning o‘zbek tili darslarida qo‘llanilishi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. G‘ulomov, A. va boshq. Ona tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Hasanboyeva, O. (2021). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. Toshkent: Noshir.
5. I. Azimova, 2020. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. -Toshkent: Hilol nashr.
6. Qodirov, A., Yo‘ldoshev, U. (2019). O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
7. Qosimova, K. S., Matjonov va b. (2009). Ona tili o‘qitish metodikasi.
8. Rahimov, S. (2017). Innovatsion ta’lim va interfaol metodlar. Toshkent: Fan.
9. Shuhratovna, N. Y. (2024). Kichik hajmdagi matnlar orqali o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Modern Educational System and Innovative Teaching Solutions, 1(3), 273–276.
10. Tursunaliyeva 2023, 514-516
11. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. 2017. Toshkent
12. Xolmatova, O. O. K. (2023). O‘zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 3(7), 292–299
13. Yo‘ldoshev, U., Qurbonov, S. (2020). O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
14. Yo‘ldosheva, D. (2021). O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent: Durdona nashriyoti.